



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ



ТЕРМИЗ ДАВЛАТ
УНИВЕРСИТЕТИ



ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ
ЖАМИАТИ

**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ
ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИАТИ**

**ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ТАБИЙ ФАҢЛАР ФАКУЛЬТЕТИ
ГЕОГРАФИЯ КАФЕДРАСИ**



**ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИНГ
ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ**

**Республика илмий-амалий конференцияси
материаллари**

Термиз 2020

ustunsimon diagrammalarda aks ettirish. Bunda yillik yog'in miqdori, uning oylari bo'yicha taqsimlanishi haqida materiallarni o'quvchilarga aytish maqsadga muvofiqdir.

Grafik sxemalar bilan ishlashda avvalo o'quvchilarni ulardagi belgilar mazmuni bilan tanishtirish kerak, sxema, grafik diagrammalar bilan ishlash o'qituvchi rahbarligida bo'lishi shart. Ilyustratsiyalar bilan ishlashda o'quvchilar darslik matni mazmunidagi nazariy bilimlarni eslashlari zarur. Shundagina didaktikaning eng muhim qonuniyati: nazariyani amaliyot bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli materiallar bilan ishlash. Geografiya darsliklari raqamli materiallarga ham juda boy. Bular tog'larning balandligi, daryolar uzunligi, mamlakatlat maydoni, aholisi, zichligi, tabiiy o'sish ko'rsatkichlari, iqtisodiy ko'rsatkichlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va b.

Ta'lim sohasida yuz bergan o'zgarishlar qatorida pedagogik jarayonning mazmun mohiyati metodlar ayniqsa keskin o'zgardi. Yangi pedagogik texnologiyalar amalga tadbiiq qilina boshladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar hozirgi davr ta'lim jarayonini yangi sifat ko'rsatkichlariga olib chiqishi mumkin bo'lgan metodlar tizimiga aylandi. Jahonda rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda o'quvchi – yoshlarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori malakali mutaxassislar yetishtirib berish vazifalarini ham hal etmoqda.

Shunday ekan, maktablarda o'quvchilarga bilim berish shu bilan birga ko'nikma va malakalarini hosil qilishda pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish jahon andozalariga mos keladigan ilg'or mutaxassislarni tayyorlashga ulkan hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz, T.: “O'zbekiston”, 2017.
2. Ishmuxamedov R va boshqalar. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.: 2010.
3. Qurbonniyozov R “Geografiya ta'limi metodikasi” Urganch. 2002.
4. Internet saytlar: www.ziyounet.uz; www.pedagog.uz; www.tdpu.uz.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA ELEKTRON TAQDIMOTLARDAN FOYDALANISH

Haydarova S. A.

Jizzax davlat pedagogika instituti

O'zbekiston Respublikasida ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni tizimli, shu bilan birgalikda keng qamrovli va serqirra jarayon bo'lib, unga kiritilgan har qanday innovatsiya o'z samarasini beradi. Ta'lim-tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilarning didaktik maqsadlarga erishishi uchun bosh omil sanaladi.

O'qituvchi mashg'ulotda o'rganiladigan mavzu mazmunini o'quvchilar ongiga yetkazish uchun, avvalo o'qitish metodlari, vositalari, shakllarini tanlaydi va o'z pedagogik faoliyatini tashkil etish tarkibi va mazmunini loyihalashtiradi.

Maktab geografiya darslarida axborot texnologiyalari va kompyuterdan foydalanish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirishda texnik vositalarning o'rni juda katta. Lekin kompyuter texnologiyalaridan foydalanish birmuncha malaka va tajribani talab etadi. Xususan, kompyuterdan foydalanib taqdimotlar yaratish va darslarda foydalanish uchun o'qituvchi kompyuter savodxonligidan tashqari ma'lumotlarni izchil namoyish qila bilishi va izohlay olishi kerak bo'ladi.

Geografiya darslarida taqdimotdan foydalanish boshqa usullardan ko'ra yaxshi samara beradi. Maktab geografiya kursining barcha bosqichlarida turli mavzularda taqdimot yaratish va namoyish qilish imkoniyati mavjud. Lekin taqdimot yaratish o'ziga xos bosqichlarga egaki, materiallarni tanlay bilish, ularni jonlantirish va ranglar berishda to'g'ri yo'nalish olish muhimdir. Turli sinfga mansub o'quvchilarning qiziqish va yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur bo'ladi.

Taqdimot yaratish uchun ma'lumotlar va materiallarni yig'ish, tanlash va joylashtirish, ularni kerakli rang, effekt va harakatlar, shuningdek tovushlar bilan ta'minlay bilish uchun o'qituvchi kompyuterda taqdimot yaratishga mo'ljallangan dasturda ishlashni yaxshi o'rgangan bo'lishi kerak.

Maktab geografiya darslarida axborot texnologiyalari va kompyuterdan foydalanish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirishda texnik vositalarning o'rni juda katta. Lekin kompyuter texnologiyalaridan foydalanish birmuncha malaka va tajribani talab etadi. Xususan, kompyuterdan foydalanib taqdimotlar yaratish va darslarda foydalanish uchun o'qituvchi kompyuter savodxonligidan tashqari ma'lumotlarni izchil namoyish qila bilishi va izohlay olishi kerak bo'ladi.

Geografiya darslarida taqdimotdan foydalanish boshqa usullardan ko'ra yaxshi samara beradi. Maktab geografiya kursining barcha bosqichlarida turli mavzularda taqdimot yaratish va namoyish qilish imkoniyati mavjud. Lekin taqdimot yaratish o'ziga xos bosqichlarga egaki, materiallarni tanlay bilish, ularni jonlantirish va ranglar berishda to'g'ri yo'nalish olish muhimdir. Turli sinfga mansub o'quvchilarning qiziqish va yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur bo'ladi.

Taqdimot yaratish uchun ma'lumotlar va materiallarni yig'ish, tanlash va joylashtirish, ularni kerakli rang, effekt va harakatlar, shuningdek tovushlar bilan ta'minlay bilish uchun o'qituvchi kompyuterda taqdimot yaratishga mo'ljallangan dasturda ishlashni yaxshi o'rgangan bo'lishi kerak.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib dars o'tishning eng samarali usullaridan biri taqdimot darsidir. Taqdimot yaratish uchun zamonaviy kompyuterlar maxsus dastur "Microsoft PowerPoint" bilan ta'minlangan. Bu dastur turli darajada va murakkablikdagi taqdimotlar yaratish uchun maxsus ishlab chiqilgan. Taqdimotlar murakkabligi ulardagi harakat, tovush va effektlarning xususiyatlari bilan belgilanadi. Oddiy taqdimotlarda ma'lumotlar bir xil jarayonda, ketma-ket namoyish etiladi va og'zaki izoh beriladi. Murakkabligi o'rtacha taqdimotlarda esa namoyish etiladigan materiallar bir necha harakat bilan namoyish etiladi va turli yozuvli hamda tovushli izohlarga ega bo'lishi mumkin. Eng murakkab taqdimotlarda asosan videomateriallar qo'shimcha effektlar va tovushlar hamda muallifning yozilgan izohlari bilan namoyish etiladi. Bunday taqdimotlar turli maqsadlarda yaratiladi. Masalan eng murakkab taqdimotlardan darslarda foydalanib bo'lmaydi, bunday taqdimotlar umumiy namoyish uchun yaratiladi. Dars maqsadlarida yaratilgan taqdimotlarda ma'lumotlar bir necha effektlar bilan ta'minlanganligi, qisqa yozuvli izohlarga egaligi bilan chegaralanganligi maqsadga muvofiq qo'shimcha izohlar o'qituvchi tomonidan berilishi ko'zda tutiladi, bunda o'qituvchi namoyish etiladigan materiallar haqida ayni vaqtda berilgan savollar yoki umumiy tarzda izoh berib boradi va o'quvchilarda darsga bo'lgan munosabatni shakllantiradi.

Taqdimot yaratish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Mavzuga oid taqdimot materiallari rasmlar, geografik karta va diagramma, chizmalar tayyorlash yoki tayyor materiallar tanlash;
- Taqdimot muharriri "Powerpoint" ga kirish va taqdimot dizaynini tanlash;
- O'quv materiallari va ma'lumotlarni muharrirga joylashtirish;
- Har bir taqdimot uchun alohida taqdimot maketi va dizaynini yaratish;
- Taqdimot ma'lumotlarini beruvchi materiallarni jonlantirish;
- Taqdimotga musiqa va tovushlarni kiritish;
- Taqdimot materiallarini tadrijiy davomiylilikda joylashganligini tekshirish va namoyish qilish.

"Powerpoint" "Microsoft Office" dasturidagi maxsus taqdimotlar yaratishga mo'ljallangan muharrir bo'lib, taqdimot yaratish uchun barcha imkoniyatlar bilan ta'minlangan. Avvalo dastur muharririga kirib, undagi barcha bo'limlar va buyruq menyulari WORD va EXEL muharrirlaridan farq qilishi ta'kidlanadi. Taqdimot sahifalari slayd deb ataladi.

Aholi migratsiyasi haqida taqdimot yaratish har qanday taqdimot yaratish kabi bir qancha bosqichlardan iborat. Eng avvalo bu taqdimotning ta'lim tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchilarda geografik bilimlarini shakllantirish va insoniyatning turmush darajasini yaxshilash yo'lida qanday ishlarni amalga oshirganligini his etishlariga zamin yaratishini maqsad qilib olish zarur. Binobarin, taqdimotda namoyish etilayotgan materiallar shunchaki tomosha bo'lib qolmasdan, balki muayyan

tushunchalarni shakllantirish omili bo‘lib qolmog‘i kerak. Taqdimot materiallari sifatida darslik va ilmiy ommabop asarlardan olingan lavhalar, suratlar va chizma-xaritalar, shuningdek muallif tomonidan yaratilgan ma‘lumotlarni oydinlashtiruvchi chizmalar xizmat qiladi.

Aholi migratsiyasi haqida taqdimot yaratish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Taqdimot mavzusiga mos materiallar to‘plash;
- Ma‘lumotlarni saralash va ularga izohnomalar tuzish;
- Surat, xarita va chizmalarni taqdimot uchun moslashtirish;
- Taqdimot nusxasi va namunasini tanlash.
- Taqdimot sahifalariga ma‘lumotlar va ko‘rgazmali materiallarni kiritish;
- Taqdimot sahifalariga kiritilgan ma‘lumotlar namoyishini shakllantirish;
- Ko‘rgazmali materiallarni jonlantirish, tovush va effektlar bilan ta‘minlash;
- Taqdimot namoyishini tartibga keltirish va taqdimotni yakunlash.

Taqdimot namoyishi shunchaki tomosha bo‘lib qolmasdan, ta‘limiy ahamiyatga ega dars jarayoniga aylanishi lozimligi ta‘kidlandi. Buning uchun insonlarning ko‘chib yurishlariga sabab bo‘luvchi tarixiy, siyosiy va ijtimoiy omillarni tahlil qilish orqali geografik bilimlari kengayishi va migratsiya haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish talab etiladi.

Migratsiyani taqdimot shaklida namoyish qilish va ularga ijodiy yondashuv bolalarda geografiya fani va umuman ilmga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, ularning ma‘naviy – ahloqiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdieva Z.A. “Geografiya fanida noan‘anaviy dars usullaridan foydalanish”. Navoiy 2003y.
2. Nikadambayeva H. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. T. Mumtoz so‘z, 2015.
3. Tolipov U.Q, Usmonboeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” T.Fan: 2006y
4. Yuldoshev J.G., Usmanov S.A. “Pedagogik texnologiya asoslari.” T.O‘qituvchi:2004y.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL QILISH METODIKASI

Abduhaliqov K., Qarabekov M.

Toshkent viloyati Parkent tumani 24-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

Hozirgi kunda ilmiy va o‘quv adabiyotlarda “mustaqil ish”, “mustaqil ta‘lim olish”, “o‘zini tarbiyalash”, “mustaqil o‘qish” kabi tushunchalardan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda. “Pedagogika fanidan izohli lug‘at”da “*mustaqil ta‘lim*”, “*mustaqil ish*” tushunchalari bir xil ma‘noni anglatib, olingan bilim, ko‘nikma va malakani mustahkamlash, qo‘shimcha materiallarni o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli deb qaraladi.

Mustaqil ta‘limni 3 ta turga ajratish mumkin: mustaqil ish, mustaqil ta‘lim (o‘rganish) va ochiq hamda distant kurslarda shug‘ullanish. Mustaqil ish sinf xonasi yoki auditoriyada bajarilib, unda o‘tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar o‘qituvchi rahbarligida bajariladi. Shuningdek, o‘quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o‘zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va tajriba ishlariga tayyorgarlik ko‘rish va boshqalar ham mustaqil ish tarzida bajarilishi mumkin.

Mustaqil ta‘lim (o‘rganish) auditoriya va sinfdan tashqarida bajariladi. Unda ijodiy va ilmiy tadqiqot tavsifidagi ishlarni bajarish hamda bilim egallash uchun axborot izlash, yig‘ish, tahlil qilish, taqqoslash hamda xulosalash kabi faoliyatlar mustaqil amalga oshiriladi. Mustaqil bilim olish ma‘lum maqsadga yo‘naltiriladi va oliy o‘quv yurtlari talabalari amalga oshirishi lozim bo‘lgan o‘quv faoliyatidir.

Ochiq va distant kurslarda shug‘ullanish esa masofaviy bo‘lib, undan rivojlangan g‘arb mamlakatlarida Keng qo‘llanilmoqda. Mazkur tur ta‘lim oluvchi qiziqishi va intellektual salohiyatini hisobga olingan individuallashtirgan ta‘lim berishdir.

23.	Алламуратов Ш., Алламуратова Х. Ўзбек ономастикасида амударё гидронимлари ҳақида айрим мулоҳазалар	64
24.	Умарова М. Ҳ. Сурхондарё вилоятининг халқ, қабила ва уруғ номлари асосида шаклланган топонимлари	66
25.	Низомов А., Маҳмудова Ч. Маҳмуд Қошғарий илмий меросининг ўрганилиш тарихи	69
26.	Амонов Х. Н. Дарсдан ташқари ишлар ва синфдан ташқари машғулотларда педагогик технологиялардан фойдаланишни лойиҳалаштириш	72
27.	Валиева Ш.И., Тошмуродов Ш.З. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг география фанига қўшган ҳиссаси	75
28.	Matsaidova S.X., Abdullayev A.G., Po'latova Q.D. Zamonaviy geografiya ta'limida geografik madaniyatni shakllantirish muammolari	77
29.	Абдуллаева Д. Н. Электрон методик таълим воситалари – география дарсларининг самарадорлигига кафолат омили	78
30.	Abduvohidov S., Abdullayev S. Maktab geografiya ta'limida tabiat komplekslari to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish	81
31.	Usmonov M. R. “O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish imkoniyatlari” mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning ahamiyati	84
32.	Baratova D. N. Maktabda geografiya fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyati	86
33.	Hoshimova M.H., Yusupboyeva N.X., Dadaxonova M.M. Geografiya darslarini tashkil qilishda ko'rgazmali qurollarning tutgan o'rni	87
34.	Haydarova S. A. Geografiya darslarida elektron taqdimotlardan foydalanish	89
35.	Abduhalikov K., Qarabekov M. Geografiya darslarida o'quvchilarni mustaqil ishlarni tashkil qilish metodikasi	91
36.	Muqumova H.I., Qozoqova O.X. Geografiya ta'limi samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	93
37.	Djo'raboeva X. Sh. Maktab geografiya ta'limida tajriba metodidan foydalanish masalalari	96
38.	Халилова Х.Т. География таълимини такомиллаштириш масалалари	98
39.	Абдуллаева Д. Н. География фани ўқитувчиларининг компьютер саводхонлигини оширишда “қизиқарли география” электрон таълим ресурсининг ўрни	100
40.	Абдурахманов С.Т., Назарова Д.Н. Умумий ўрта таълим тизимида экологик таълимни такомиллаштириш	102
41.	Djuraboeva X. Sh. Geografiyadan sinfdan tashqari ishlarning ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishdagi o'rni	104
42.	Abdimovminov T. A. Umumta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitishda geografik atlaslardan foydalanishdagi muammolar va ularning yechimlari	106
43.	Абдуллаев И.Х., Сафаров У.Х., Сафарова Н.И., Нишанова Ш.Ф. Новые педагогические технологии в географическом образовании и некоторые вопросы применения модульного обучения	108
44.	Sultanova N.B., To'uchiyeva G. Tabiiy geografiya ta'limi mazmunini nostandart test topshiriqlarida ifodalash	111
II ШУЪБА. ИҚТИСОДИЙ ВА ИЖТИМОИЙ ГЕОГРАФИЯ		
45.	Тожиева З.Н., Жалолитдинов Н.Х. Иқтисодий география, геодемография ва минтақавий демография	115
46.	Komilova N.Q., Sh.R.Ergasheva., Allanov Sh.Q., Siddiqov S.Sh. Global pandemiyalar geografiyasi	117
47.	Қодиров Р. Б. Мехнат ресурсларидан фойдаланишнинг айрим масалалари	120